

MATERIK VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASINING LITOSFERA VA UNING  
HARAKATLARI MAVZUSIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Isayev Akbarjon Abdulhamidovich

Andijon davlat universiteti

+998902690978

Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li

+998901403566

*Annotatsiya:* Bizga ma'lumki, hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan asrda pedagogdan o'z ustida mustaqil ishlashi, izlanishi va yangi metodikalar topishni taqozo qiladi. Ushbu maqolamiz bilan biz sizlarga Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasining litosfera va uning harakatlari mavzusida interfol metodlardan foydalanish bo'yicha kerakli taklif va tavsiyalarimizni berib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** “Aqliy hujum” strategiyasi, PISA usuli.

#### KIRISH

Bugungi kunda maktablarda ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo'li hisoblanadi. Chunki, yurtimizning rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shayotgan injinermi yoki haydovchi, shifokormi yoki tarbiyachi barcha-barchasi ta'lim orqali o'zining yuqori natijalariga erishadi. Yurtboshimiz tomonidan 2023-yil “Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili” deb e'lon qilinishida juda katta ma'no va mazmun bor. Prezidentning ta'kidlashicha, ta'lim sifatini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. «Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, „Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi“. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo'yicha ular qo'yg'an masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur». [2]

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktablarda o'qitilayotgan yangi 7-sinf geografiya darsligi mualliflari M.T.Mirakmalov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojiyevalardir.

Ushbu darslikning taqrizchilari V.A.Rafiqov O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmalogiya institutining geografiya fanlari doktori (DSc), N.R.Alimqulov – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti geografiya kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi; R.A.Ibragimova – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU tabiiy geografiya kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari nomzodi; Sh.Usmanov – Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri 2-IDUM geografiya fani o'qituvchisi; D.K.Oxunjonova – Toshkent shahri Olmazor tumani 278-maktabning geografiya fani o'qituvchisi hisoblanadi.



Maktabda o'qitiladigan 7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi kursiga qo'shimcha adabiyot sifatida P.Baratovning O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi va P.Baratovning O'zbekistonning tabiiy geografiyasi misol bo'la oladi.

### **MUHOKAMA**

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida taniqli metodist olimlar shuni isbot qiladilarki, o'quvchi yoki talaba manbani o'zi o'qisa 10 %, ma'lumotni eshitib o'rgansa 20 %, sodir bo'lgan voqea, xodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risida ma'lumotlarni eshitganida 50 %, ma'lumotlarni o'zi tengdoshiga uzatganida 80 % o'zlashtirilgan bilimlarni faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni xotirasida saqlash imkoniyati mavjud ekanligi haqida isbotlaganlar.

Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasining Litosfera va uning harakatlari mavzusida interfol metodlardan foydalanish metodlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Aqliy hujum strategiyasi o'quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o'z tasavvurlari, g'oyalardan ijobiy foydalanishga doir ko'nikma, malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Strategiya yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha orginal (o'ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. Strategiya mavzu doirasida ma'lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

### **NATIJALAR**

Yuqoridagi biz Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasining Litosfera va uning harakatlari mavzusida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha metodlarning ketma-ket bajarilishi bilan tanishamiz.

I."Aqliy hujum" strategiyasi.

Ushbu metodni amalga oshirish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish lozim.

1.O'quvchilarning o'zlarini erkin xis etishlariga sharoit yaratib berish, g'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki tarqatmali qog'ozlarni tayyorlab qo'yish.

2.Muammo yoki mavzuni aniqlash. Masalan, "Litosfera va uning harakatlari"

3.Mashg'ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash.

4.Litosfera va uning harakatlari mavzusi bo'yicha bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish, qog'ozlar g'oya yoki fikrlar bilan to'lgandan so'ng yozuv taxtasiga yopishtirish.

5.Mavzu bo'yicha bildirilgan fikr, yangi g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga e'tibor qaratish.

6.O'quvchining boshqalar bildirgan fikrlarni yodda saqlashi, ularga tayanib yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish.

7.O'quvchilar tomonidan mustaqil fikr yuritilishi, shaxsiy fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish.

8.Ilgari surilgan g'oyalarni yanada boyitish asosida o'quvchilarni quvvatlash.

9.Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulish, kinoyali sharxlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik.



10. Yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan eka, muammoning yagona tog'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik

Mazkur strategiyani qo'llashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

A) O'quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

B) Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag'batlantirilib boriladi, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning rag'batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug'ilishiga olib keladi.


C) Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o'zgartirishi mumkin; avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

D) Mashg'ulotda o'quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildiriladigan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi.

## II. PISA usuli

Ushbu usul tabiiy fanlardan o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantiruvchi, ularda ijodkorlik, intellektualik kabi hislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Misol uchun, Quyidagi rasmda tasvirlangan qatlamlarni qalinligini aniqlang.



Materiklarning siljish tartibini to'g'ri joylashtiring.



A) 2, 3, 4, 1    B) 1, 2, 4, 3    C) 2, 3, 1, 4    D) 3, 1, 2, 4

## XULOSA

Ushbu maqolamdan xulosa o'rnida shuni aytamanki, Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiasining litosfera va uning harakatlari mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligining o'sishiga o'quvchilarni faollikka, tashabbuskorlikka, intuluvchan shaxs sifatida komil inson bo'lishiga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.T.Mirakmalov, Sh.M.Sharipov, M.M.Avezov, M.T.Hojiyeva 7-sinf geografiya darsligi (Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiasi kursi)
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/> - internet sayti.

3.X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Karabazov “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi”ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari-Toshkent.2017-y, - 224 b.

4.Mamadaliyev Javlonbek “Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi uchun mavzulashtirilgan metodlar jamlanmasi” (6-sinf misolida umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan).Andijon-2019. -96 b.

5.Isayev A.A., Abdurahmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>  
<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

6.A.A.Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>

7.The use of interactive techniques in the lesson of the geological structure of Uzbekistan and development of the earth's surface in the 7<sup>th</sup> grade geography// Galaxy International interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Volume 10, Issue 4, April. (2022) 300-303. (Hammualiflari Xabibullayeva M.N, Po'latov U., Abdumalikov H.Q)

